

O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

4-SINF "TARBIYA" FANIDA HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGIGA OID MAVZULARNI INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Xolmatova Guzal Islomovna

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

gozalxolmatova2@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada 4-sinf “Tarbiya” fani mavzulariga hayot faoliyati xavfsizligiga oid mazmunni integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Integratsiyalashgan yondashuv asosida o‘quvchilarda ekologik xavfsizlik, sog‘lom turmush tarzi, yo‘l harakati xavfsizligi, oziq-ovqat xavfsizligi hamda favqulodda vaziyatlarda ratsional xatti-harakat qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, “Tarbiya” fanining ayrim mavzulari bilan hayot faoliyati xavfsizligiga oid mavzularning o‘zaro bog‘liqligi asoslab berilgan hamda ularni o‘qitishning amaliy jihatlarini yoritilgan. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta‘lim jarayonida integratsiyalashgan yondashuvdan foydalanish o‘quvchilarning xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: hayot faoliyati xavfsizligi, integratsiya, Tarbiya fani, favqulodda vaziyat, ratsional xatti-harakat.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlar sonining ortib borishi yosh avlodni turli xavf-xatarlarga tayyorlash zaruratini kuchaytirmoqda. O‘quvchilarda xavfsiz hayot kechirish madaniyati, xavfni oldindan anglash, vaziyatni to‘g‘ri baholash va oqilona qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta‘limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari hisobga olinganda, ularda hayot faoliyati xavfsizligi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni alohida fan sifatida emas, balki mavjud fanlar mazmuniga integratsiyalash samarali natija beradi. Ayniqsa, 4-sinf “Tarbiya” fani mazmuni mazkur yo‘nalish uchun keng pedagogik imkoniyatlarga ega.

Xorijiy tadqiqotlarda maktab o‘quvchilarini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash, xavfsiz xulq-atvorni shakllantirish hamda hayot faoliyati xavfsizligi ta‘limining mazmunini takomillashtirish masalalari keng yoritilgan. Jumladan, Yaponiya, AQSH, Finlandiya va Janubiy Koreya ta‘lim tizimlarida tabiiy ofatlar, yong‘in, yo‘l harakati xavfsizligi, birinchi yordam va favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar boshlang‘ich ta‘lim bosqichidan boshlab o‘quv dasturlariga integratsiyalashtirilgan. Mazkur tajribalar o‘quvchilarda nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Xalqaro tashkilotlar



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalarda ham maktab ta'limida xavfsizlik madaniyatini shakllantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilgan. Xususan, falokatlar xavfini kamaytirish va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik bo'yicha ta'limni umumta'lim dasturlariga integratsiyalash o'quvchilarning hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omili sifatida baholanadi.

Mamlakatimizda ham o'quvchilarni favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga tayyorlash, hayot faoliyati xavfsizligi madaniyatini rivojlantirish va kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Boshlang'ich ta'limning davlat ta'lim standartlari, "Tarbiya" fani o'quv dasturi hamda darsliklarida sog'lom turmush tarzi, ekologik madaniyat, yo'l harakati xavfsizligi, shaxsiy xavfsizlik va ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liq mavzular o'rin olgan.

Biroq olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 4-sinf "Tarbiya" fani mazmuniga hayot faoliyati xavfsizligiga oid mavzularni tizimli ravishda integratsiyalash, ayniqsa o'quvchilarda favqulodda vaziyatlarda ratsional xatti-harakat qilish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan metodik ta'minot yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mavjud tadqiqotlarning aksariyati alohida xavfsizlik yo'nalishlarini yoritishga qaratilgan bo'lib, ularni "Tarbiya" fanining mazmuni bilan uzviy bog'lash, dars jarayonida integratsiyalashgan yondashuvni qo'llash hamda amaliy topshiriqlar tizimini yaratish masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu bois 4-sinf "Tarbiya" fani mazmuniga hayot faoliyati xavfsizligiga oid mavzularni integratsiyalash, o'quvchilarda xavfsiz xulq-atvor va favqulodda vaziyatlarda ratsional harakat qilish kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqish dolzarbligini belgilaydi.

Asosiy qism. Tarbiya fanining integrativ imkoniyatlari. 4-sinf "Tarbiya" fani o'quvchilarda: mas'uliyat, fuqarolik pozitsiyasi, sog'lom turmush tarsi, ekologik madaniyat, ijtimoiy faollik, xavfsiz xulq-atvor kabi kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Mazkur mazmun hayot faoliyati xavfsizligiga oid bilimlarni tabiiy ravishda integratsiyalash imkonini beradi. Integratsiya orqali o'quvchilar nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashni o'rganadilar.

4-sinf

Tarbiya fani mavzusi Integratsiyalashadigan xavfsizlik mavzusi

1. Birinchi tibbiy yordam ko'ratish Tez yordam ko'rsatishni o'rganamiz

2. Botulizm Nimalarni iste'mol qilish mumkin?

3. Piratexnika vositalarining salbiy oqibatlari Bayramlarda xavfsizlik qoidalar

4. Yo'l transport hodisalarining oldini olish Yo'l harakati xavfsizligi Integratsiya qilinishi taklif etiladigan mavzular



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

Integratsiyalash tamoyillari. Hayot faoliyati xavfsizligi mavzularini Tarbiya faniga integratsiyalash quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq: uzviylik, tizimlilik, amaliy yo'naltirilganlik, kompetensiyaviy yondashuv, yosh xususiyatlariga moslik, fanlararo bog'liqlik.

Integratsiyaning pedagogik afzalliklari. Integratsiyalashgan ta'lim natijasida o'quvchilarda xavfni aniqlash, vaziyatni tez baholash, ratsional qaror qabul qilish, xavfsiz harakatlanish, jamoada hamkorlik qilish, o'zini va boshqalarni himoya qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Bundan tashqari, o'quvchilarda mas'uliyatlilik, hushyorlik, mustaqillik hamda stressli vaziyatlarda o'zini boshqarish kompetensiyalari shakllanadi.

“Havoning ifloslanishi” mavzusini “Tez yordam ko'rsatishni o'rganamiz” mavzusi bilan integratsiyalash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari havo ifloslanishining inson salomatligiga salbiy ta'siri haqida boshlang'ich tasavvurlarga ega bo'lishlari bilan bir qatorda, bunday holatlarda qanday harakat qilishni ham bilishlari zarur. Shu nuqtai nazardan, “Havoning ifloslanishi” mavzusini “Tez yordam ko'rsatishni o'rganamiz” mavzusi bilan integratsiyalash o'quvchilarda ekologik ong, sog'liqni saqlash madaniyati va favqulodda vaziyatlarda birinchi yordam ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Dars avvalida o'quvchilarga havoni ifloslantiruvchi asosiy omillar (transport vositalari chiqindi gazlari, sanoat korxonalari tutuni, chang, yong'in tutuni va maishiy chiqindilarni yoqish natijasida hosil bo'ladigan zararli moddalar) haqida ma'lumot beriladi. Shundan so'ng, iflos havoning inson organizmiga, ayniqsa bolalarning nafas olish tizimiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri tushuntiriladi. O'quvchilar yo'tal, nafas qisishi, bosh aylanishi, ko'zning achishishi, allergik reaksiyalar va tutundan zaharlanishning dastlabki belgilarini aniqlashni o'rganadilar. Nazariy bilimlardan so'ng dars amaliy yo'nalishda davom ettiriladi. O'quvchilarga havo ifloslanishi yoki tutundan zaharlanish holatlarida birinchi yordam ko'rsatish algoritmi bosqichma-bosqich tushuntiriladi. Jumladan:

- jabrlanuvchini ifloslangan hududdan toza havoga olib chiqish;
- kiyimining yoqasini bo'shatish va qulay holatga keltirish;
- chuqur va erkin nafas olishiga yordam berish;
- zarurat tug'ilganda kattalarga yoki tez tibbiy yordam xizmatiga murojaat qilish;

o'z hayotini xavf ostiga qo'ymasdan yordam ko'rsatish qoidalariga amal qilish.

Shuningdek, chang bo'roni yoki kuchli tutun kuzatilganda niqobdan foydalanish, deraza va eshiklarni yopish, tashqarida uzoq vaqt qolmaslik hamda rasmiy ogohlantirishlarga amal qilish kabi profilaktik choralar ham o'rgatiladi. Mazkur integratsiyada vaziyatli topshiriqlar (Case study), rol o'ynash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va amaliy mashqlar samarali



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

metodlar hisoblanadi. Masalan, o'quvchilarga quyidagi vaziyat taklif etilishi mumkin: "Maktab yaqinida qalin tutun paydo bo'ldi. Sinfdoshingiz yo'tala boshladi va nafas olishi qiyinlashdi. Siz qanday harakat qilasiz?" O'quvchilar guruhlarda vaziyatni tahlil qilib, harakatlar ketma-ketligini ishlab chiqadilar. Bu usul ularning mantiqiy fikrlashi, tezkor qaror qabul qilishi va hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Mazkur integratsiya natijasida o'quvchilarda quyidagi kompetensiyalar rivojlanadi:

- ekologik xavfsizlik qoidalariga rioya qilish;

- havoning ifloslanish manbalarini aniqlash va ularning salomatlikka ta'sirini tushunish;

- tutundan zaharlanish va nafas olish bilan bog'liq favqulodda holatlarning dastlabki belgilarini farqlash;

- birinchi yordamning oddiy usullarini amalda qo'llash;

- favqulodda vaziyatlarda vahimaga berilmasdan, oqilona va ketma-ket harakat qilish;

- o'z salomatligi hamda atrofdagilar xavfsizligi uchun mas'uliyat hissini namoyon etish.

Integratsiyalashgan dars yakunida o'quvchilar havo ifloslanishining salomatlikka ta'sirini tushuntira oladilar, xavfli belgilarni taniydilar, tutun yoki chang ta'sirida yuzaga keladigan holatlarda birinchi yordam ko'rsatishning sodda algoritmini amalda bajaradilar hamda ekologik xavfsizlik qoidalariga ongli ravishda rioya qilish zarurligini anglaydilar. Natijada "Havoning ifloslanishi" mavzusi faqat ekologik bilim berish bilan cheklanmay, balki hayot faoliyati xavfsizligi nuqtayi nazaridan o'quvchilarning amaliy tayyorgarligini ham rivojlantiradigan integratsiyalashgan ta'lim mazmuniga aylanadi.

"Sog'lom turmush tarsi" mavzusini "Nimalarni iste'mol qilish mumkin?" mavzusi bilan integratsiyalash.

Mazkur integratsiya o'quvchilarda sog'lom ovqatlanish madaniyati, oziq-ovqat xavfsizligi hamda salomatlikni asrashga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarziga oid tushunchalarni hayot faoliyati xavfsizligi bilan bog'liq holda o'rgatish ularning sog'lig'ini mustahkamlash va turli kasalliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Integratsiyalashgan darsda dastlab sog'lom turmush tarzining asosiy tarkibiy qismlari – to'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik, shaxsiy gigiyena, dam olish va kun tartibiga rioya qilish masalalari yoritiladi. Shundan so'ng "Nimalarni iste'mol qilish mumkin?" mavzusi bilan bog'liq holda oziq-ovqat mahsulotlarini tanlash va iste'mol qilishning xavfsizlik qoidalari muhokama qilinadi.

O'quvchilarga oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish va iste'mol qilishdan oldin ularning yaroqlilik muddati, saqlash sharoiti, qadoqning butunligi hamda tashqi ko'rinishiga e'tibor qaratish zarurligi tushuntiriladi. Shuningdek,



buzilgan, mog'orlagan yoki kelib chiqishi noma'lum bo'lgan mahsulotlarni iste'mol qilish oziq-ovqatdan zaharlanish, ichak infeksiyalari va boshqa sog'liq muammolariga olib kelishi mumkinligi misollar orqali izohlanadi. Dars davomida foydali va zararli oziq-ovqat mahsulotlari taqqoslanadi. Meva-sabzavotlar, sut mahsulotlari, don mahsulotlari va oqsilga boy taomlarning organizm uchun foydasi, shuningdek, gazlangan ichimliklar, chipslar, tez tayyorlanadigan ovqatlar va tarkibida shakar hamda tuz miqdori yuqori bo'lgan mahsulotlarni me'yoridan ortiq iste'mol qilishning salbiy oqibatlari haqida tushunchalar beriladi. Bu orqali o'quvchilarda sog'lom tanlov qilish ko'nikmasi rivojlantiriladi.

Mazkur mavzularni integratsiyalashda “Savatchani to'ldir”, “Foydali yoki zararli?”, “Mahsulotni tanlang”, “Vaziyatni tahlil qiling” kabi interfaol metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, o'quvchilarga quyidagi vaziyatli topshiriq beriladi: Aziz do'kondan qadoqlangan sharbat sotib oldi. Uyga kelgach, mahsulotning yaroqlilik muddati ikki kun oldin tugaganini payqadi. Bunday holatda u qanday yo'l tutishi kerak? O'quvchilar vaziyatni tahlil qilib, muddati o'tgan mahsulotni iste'mol qilmaslik, kattalarga xabar berish va mahsulotni do'konga qaytarish zarurligi haqida xulosa chiqaradilar. Bunday topshiriqlar bolalarda tanqidiy fikrlash va xavfsiz qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ushbu integratsiya natijasida o'quvchilarda quyidagi kompetensiyalar shakllanadi:

- sog'lom ovqatlanish tamoyillariga amal qilish;
- foydali va zararli oziq-ovqat mahsulotlarini farqlash;
- oziq-ovqat mahsulotlarining yaroqlilik muddati va saqlash sharoitini tekshirish;
- oziq-ovqatdan zaharlanishning oldini olish choralarini bilish;
- shaxsiy gigiyena va ovqatlanish gigiyenasiga rioya qilish;
- sog'lig'ini asrash va xavfsiz ovqatlanish bo'yicha ongli qaror qabul qilish.

Integratsiyalashgan dars yakunida o'quvchilar sog'lom ovqatlanishning inson salomatligidagi o'rnini tushuntira oladilar, xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlarini tanlash mezonlarini biladilar, yaroqlilik muddati va saqlash sharoitini tekshirish odatini shakllantiradilar hamda sifatsiz mahsulotlarni iste'mol qilishning salbiy oqibatlarini anglaydilar. Natijada ularda oziq-ovqat xavfsizligi madaniyati, sog'lom turmush tarziga rioya qilish va hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashga oid amaliy ko'nikmalar rivojlanadi. Bu esa “Sog'lom turmush tarsi” mavzusining mazmunini boyitib, uni kundalik hayotda qo'llash mumkin bo'lgan amaliy bilimlar bilan uyg'unlashtiradi.

“Bizning xatti-harakatlarimiz” mavzusini “Bayramlarda xavfsizlik qoidalarini” mavzusi bilan integratsiyalash.

Ushbu integratsiya o'quvchilarda ijtimoiy xulq-atvor madaniyati, jamoat joylarida xavfsiz harakatlanish, favqulodda vaziyatlarda ratsional qaror qabul



qilish hamda o'z hayoti va atrofdagilar xavfsizligiga mas'uliyat bilan yondashish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Chunki bayram tadbirlari odatda ko'p sonli odamlar ishtirok etadigan jamoat joylarida o'tkaziladi va bunday sharoitda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish har bir ishtirokchidan yuqori darajadagi mas'uliyatni talab etadi. Integratsiyalashgan darsda avvalo "Bizning xatti-harakatlarimiz" mavzusi doirasida odob-axloq me'yorlari, jamoada o'zini tutish madaniyati, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, tartib-intizomga amal qilish kabi masalalar yoritiladi. Keyinchalik ushbu bilimlar "Bayramlarda xavfsizlik qoidalariga" mavzusi bilan bog'lanib, bayram tadbirlari davomida uchrashi mumkin bo'lgan xavfli vaziyatlar misolida tahlil qilinadi.

O'quvchilarga bayramlarda gavjum joylarda yugurmaslik, bir-birini itarmaslik, ota-ona yoki mas'ul kattalardan uzoqlashmaslik, evakuatsiya yo'laklarini to'smaslik, xavfsizlik belgilariga e'tibor berish hamda tadbir tashkilotchilarining ko'rsatmalariga amal qilish zarurligi tushuntiriladi. Shuningdek, notanish buyumlarga tegmaslik, shubhali vaziyatlarda kattalarga yoki mas'ul shaxslarga murojaat qilish, vahimaga berilmasdan tartibli ravishda harakat qilish kabi xavfsiz xulq-atvor qoidalariga ham o'rgatiladi. Hayot faoliyati xavfsizligi nuqtayi nazaridan pirotexnika vositalaridan foydalanish masalasiga ham alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilarga petarda, mushakbozlik va boshqa pirotexnika buyumlari kuyish, yong'in, ko'z va qo'l jarohatlari kabi jiddiy xavflarni keltirib chiqarishi mumkinligi tushuntiriladi. Shu sababli bunday vositalardan mustaqil foydalanish mumkin emasligi, ular faqat kattalar nazorati ostida va belgilangan xavfsizlik qoidalariga rioya qilingan holda qo'llanilishi lozimligi ta'kidlanadi.

Mazkur mavzularni integratsiyalashda vaziyatli topshiriqlar (Case study), rol o'ynash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, "To'g'ri yoki noto'g'ri?", "Qanday yo'l tutasiz?" kabi interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, o'quvchilarga quyidagi vaziyat taklif etiladi: Siz oilangiz bilan bayram tomoshasiga boringiz. Tadbir davomida odamlar juda ko'payib ketdi va ukangiz sizdan uzoqlashib qoldi. Shu paytda ayrim odamlar yugurishni boshladi. Bunday vaziyatda qanday harakat qilasiz? O'quvchilar vaziyatni muhokama qilib, vahimaga berilmaslik, xavfsiz joyga o'tish, mas'ul xodim yoki ota-onaga murojaat qilish, odamlar oqimiga qarshi yugurmaslik va tartibli harakat qilish bo'yicha xulosalar chiqaradilar. Bu mashqlar ularda favqulodda vaziyatlarni to'g'ri baholash va oqilona qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mazkur integratsiya natijasida o'quvchilarda quyidagi kompetensiyalar shakllanadi:

- jamoat joylarida xavfsiz va madaniyatli xulq-atvorni namoyon etish;
- bayram tadbirlarida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish;
- gavjum joylarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli vaziyatlarni oldindan anglash;



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

favqulodda vaziyatlarda vahimaga berilmasdan oqilona va ketma-ket harakat qilish;

pirotexnika vositalarining xavfini tushunish va ulardan xavfsiz foydalanish qoidalarini bilish;

o'zining va atrofdagilarning hayoti hamda salomatligi uchun mas'uliyat bilan yondashish.

Integratsiyalashgan dars yakunida o'quvchilar bayram tadbirlarida xavfsiz xulq-atvor qoidalarini biladilar, jamoat joylarida o'zini to'g'ri tutish ko'nikmalarini egallaydilar, xavfli vaziyatlarni oldindan baholash va favqulodda holatlarda ratsional harakat qilishni o'rganadilar. Natijada ularda ijtimoiy mas'uliyat, xavfsizlik madaniyati va favqulodda vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish kompetensiyalari rivojlanadi. Bu esa "Bizning xatti-harakatlarimiz" mavzusining tarbiyaviy mazmunini hayot faoliyati xavfsizligi bilan uyg'unlashtirib, o'quvchilarning kundalik hayotda xavfsiz va ongli xulq-atvorini shakllantirishga xizmat qiladi.

"Chet tillari nima uchun o'rganiladi?" mavzusini "Yo'l harakati xavfsizligi" mavzusi bilan integratsiyalash.

Mazkur integratsiya o'quvchilarda kommunikativ kompetensiya, global xavfsizlik madaniyati hamda xalqaro muhitda xavfsiz harakatlanish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Hozirgi globallashuv davrida chet tillarini bilish nafaqat samarali muloqot qilish, balki turli mamlakatlarda uchraydigan yo'l belgilari, ogohlantiruvchi yozuvlar va xavfsizlik ko'rsatmalarini to'g'ri tushunish imkonini ham beradi. Shu sababli ushbu ikki mavzuni integratsiyalash o'quvchilarning kundalik hayotiy kompetensiyalarini boyitadi. Integratsiyalashgan darsda avvalo "Chet tillari nima uchun o'rganiladi?" mavzusi doirasida chet tillarini bilishning ta'lim, sayohat, madaniyatlararo muloqot va axborot almashinuvidagi ahamiyati tushuntiriladi. So'ngra mazkur bilimlar "Yo'l harakati xavfsizligi" mavzusi bilan bog'lanib, qo'llaniladigan yo'l belgilari va xavfsizlik belgilarining nomi, mazmuni misollar orqali yoritiladi. Dars davomida piyodalar yo'lakhasidan foydalanish, svetoforming ranglariga rioya qilish, yo'lni faqat belgilangan joydan kesib o'tish, transport vositalariga chiqish va tushishda ehtiyotkor bo'lish kabi yo'l harakati xavfsizligi qoidalari chet tillarida o'rganiladi. O'quvchilarga ushbu qoidalarining nafaqat O'zbekistonda, balki boshqa mamlakatlarda ham inson hayoti va salomatligini muhofaza qilishga xizmat qilishi tushuntiriladi.

Mazkur mavzularni integratsiyalashda vizual ta'lim, rol o'ynash, "Belgini top", "Tarjima qiling va tushuntiring", "Sayohatchi", "Vaziyatni tahlil qiling" kabi interfaol metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi. O'quvchilar belgining ma'nosini izohlab, avval chap va o'ng tomonni kuzatish, svetofoor ishoralariga amal qilish hamda faqat piyodalar yo'lagidan foydalanish zarurligini tushuntiradilar. Bunday topshiriqlar ularda chet tilidagi oddiy xavfsizlik atamalarini tushunish va ularni amaliy vaziyatlarda qo'llash



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

ko'nikmasini rivojlantiradi. Mazkur integratsiya natijasida o'quvchilarda quyidagi kompetensiyalar rivojlanadi:

- yo'l harakati qoidalariga ongli ravishda rioya qilish;
- xalqaro yo'l belgilari va xavfsizlik belgilarining mazmunini tushunish;
- chet tilidagi oddiy ogohlantiruvchi yozuvlarni o'qish va izohlash;
- sayohat yoki notanish muhitda xavfsiz harakatlanish ko'nikmalarini egallash;

- global xavfsizlik madaniyatini shakllantirish;

- kommunikativ kompetensiyani real hayotiy vaziyatlarda qo'llash.

Integratsiyalashgan dars yakunida o'quvchilar chet tillarini o'rganishning amaliy ahamiyatini anglaydilar, xalqaro yo'l va xavfsizlik belgilarini taniydilar, ularning mazmunini tushuntira oladilar hamda yo'l harakati qoidalariga turli sharoitlarda amal qilish zarurligini tushunadilar. Natijada ularda global fuqarolik, xavfsizlik madaniyati, kommunikativ kompetensiya va hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashga doir amaliy ko'nikmalar rivojlanadi. Bunday integratsiyalashgan yondashuv chet tilini o'rganishning hayotiy ahamiyatini ochib berish bilan birga, o'quvchilarning kundalik va xalqaro muhitda xavfsiz hamda mas'uliyatli harakat qilish kompetensiyalarini ham mustahkamlaydi.

Xulosa. 4-sinf "Tarbiya" fani mazmuniga hayot faoliyati xavfsizligiga oid mavzularni integratsiyalash o'quvchilarda xavfsiz hayot kechirish madaniyatini shakllantirishning samarali pedagogik vositalaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning nazariy bilimlarini real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash, xavf-xatarlarni oldindan anglash, ularni to'g'ri baholash hamda favqulodda vaziyatlarda oqilona va mas'uliyatli xatti-harakat qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, "Havoning ifloslanishi" mavzusini "Tez yordam ko'rsatishni o'rganamiz", "Sog'lom turmush tarsi" mavzusini "Nimalarni iste'mol qilish mumkin?", "Bizning xatti-harakatlarimiz" mavzusini "Bayramlarda xavfsizlik qoidalarini" hamda "Chet tillari nima uchun o'rganiladi?" mavzusini "Yo'l harakati xavfsizligi" bilan integratsiyalash o'quvchilarda ekologik xavfsizlik, sog'lom turmush tarzi, oziq-ovqat xavfsizligi, jamoat joylarida xavfsiz xulq-atvor va global xavfsizlik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, integratsiyalashgan darslar davomida vaziyatli topshiriqlar, amaliy mashqlar, rolli o'yinlar va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish metodlaridan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqot madaniyati, tanqidiy va kreativ tafakkuri hamda favqulodda vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Demak, hayot faoliyati xavfsizligiga oid mavzularni 4-sinf "Tarbiya" fani mazmuniga tizimli ravishda integratsiyalash nafaqat ta'lim mazmunini boyitadi, balki o'quvchilarda xavfsiz va sog'lom turmush tarziga oid barqaror



kompetensiyalarni shakllantiradi. Bu esa ularning kundalik hayotda uchrashi mumkin bo'lgan turli xavfli vaziyatlarda ongli, mas'uliyatli va ratsional xatti-harakat qilishiga zamin yaratadi. 4-sinf "Tarbiya" fani mazmuniga hayot faoliyati xavfsizligiga oid mavzularni integratsiyalash o'quvchilarda xavfsiz hayot kechirish madaniyatini shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Integratsiyalashgan ta'lim yondashuvi o'quvchilarning favqulodda vaziyatlarda ratsional xatti-harakat qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirishga hamda shaxsning hayotiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois Tarbiya fani mazmunini hayot faoliyati xavfsizligiga oid mavzular bilan boyitish zamonaviy boshlang'ich ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi 171-son qarori.
2. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son qarori.
3. Usmanova O.V., Risyukova Y.V. Tarbiya 4-sinf Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. Novda. Toshkent-2023
4. Usmanova O.V., Risyukova Y.V. Tarbiya 3-sinf Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. Novda. Toshkent-2023
5. Kholmatova G. (2023). THE IMPORTANCE OF ORGANIZING INDEPENDENT LEARNING ACTIVITY IN MODERN WORLD EDUCATION. Interpretation and Researches, 1(1). extracted from <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/818>
6. Islamovna, K. G. (2025). Preparing Elementary Students for Emergencies – As a Pedagogical Problem. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 40, 169–172. Retrieved from <https://sjii.es/index.php/journal/article/view/329>

